
“Mahalla” xayriya jamoat fondi ko‘makka muhtojlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda yaqindan yordamchi bo‘lmoqda

Farg‘ona shaxridagi ko‘makka muhtoj, ehtiyojmand oilalarning yashash sharoitlarini yaxshilash, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida “Mahalla” xayriya jamoat fondi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

“Mahalla” xayriya jamoat fondi Farg‘ona shahar bo‘linmasi tomonidan yana bir ezgu ishga qo‘l urildi. Ko‘makka muhtoj oilalarning yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida uy-joylarini ta‘mirlash ishlari olib borilmoqda. Ayni kunlarda bir qator xonadonlarga qurilish materiallari yetkazib berilib, ta‘mirlash ishlari boshlab yuborildi.

Jumladan, “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi tomonidan Farg‘ona shahar Tashabbus ko‘chasi 32-uyda yashovchi G.Turdiyeva ham amaliy yordam ko‘rsatildi. Fuqarolar ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bu kabi saxovat tadbirlaridan mamnun bo‘lishib, o‘z minnatdorchiliklarini bildirishmoqda.

2023-09-14 06:50:09